

JADIDCHILIK – MA’RIFAT VA JAMIYAT TAQDIRI

Ergashev Baxtiyar Ergashevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Tarixshunoslik va manbashunoslik kafedrası mudiri, tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Yurtimizdagi islohotchilik harakati murakkab tarixiy yo‘lning serqirra tomonlarni bosib o‘tdi. XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida mustamlaka tuzum zamirida xalqimizning ilg‘or ziyoli vatanparvarlari ta‘limni isloh qilishda turli mamlakatlardagi taraqqiyot tajribalarini o‘rgangan holda Turkistonda jadidchilik harakatiga asos solishdi. Jadidlar ijtimoiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishi sifatida ta‘limni isloh qilish orqali xalqimizni ilg‘or bo‘lishi uchun turlicha qarashlar, g‘oyaviy to‘qnashuvlar mustamlakachilikka qarshi kurash maydoniga aylandi.

Kalit so‘zlar: Turkiston, jadidchilik harakati, ma‘rifatparvarlik g‘oyasi, ta‘lim islohotlari, “yosh buxoroliklar”, “yosh xivaliklar”, ommaviy matbuot.

Аннотация. Реформаторское движение в нашей стране прошло сложный исторический путь со множеством поворотов. Во второй половине XIX – начале XX века в условиях колониального режима прогрессивные патриоты-интеллектуалы нашего народа, изучая опыт развития различных стран в деле реформирования образования, основали в Туркестане движение джадидов. Джадиды, выступавшие за развитие нашего народа посредством реформы образования как главного направления социального прогресса, превратили различные взгляды и идеологические конфликты в арену борьбы с колониализмом.

Ключевые слова: Туркестан, джадидское движение, просветительские идеи, образовательные реформы, «молодые бухарцы», «молодые хивинцы», массовая печать.

Abstract. The reform movement in our country has gone through a complex historical path with many twists and turns. In the second half of the 19th – early 20th centuries, under the colonial regime, progressive patriots and intellectuals of our people, studying the experience of various countries in the field of educational reform, founded the Jadid movement in Turkestan. The Jadids, who advocated the development of our people through educational reform as the main direction of social progress, turned various views and ideological conflicts into an arena for the fight against colonialism.

Key words: Turkestan, Jadid movement, educational ideas, educational reforms, “young Bukharans”, “young Khivans”, mass media.

Mustaqillik sharofati bilan milliy tariximizga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Istiqloq tufayli qaror topgan, hurfikrlik sharoitida haqqoniy tariximizni tiklash va uni xolisona tahlil etish davr talabiga aylangan, bugungi kunda oshkoralik yuzini ko‘rishga va tuhmat tang‘alaridan xalos bo‘lishga musharraf bo‘lgan yaqin o‘tmishimiz – XIX asr oxiri va XX asrdagi milliy taraqqiyparvarlik harakati bo‘lgan – jadidchilik to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati ma’rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo‘lgan murakkab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Jumladan, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot, chor imperiyasi yuritgan mustamlakachilik siyosati, xalqning og‘ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlaridan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongda turg‘unlik – jadidlarni jahon taraqqiyoti tajribasidan foydalanib, tezlikda bu holatdan chiqish yo‘llarini izlab topishga chorladi.

Jadid» termini «usul-i-jadid» («yangi usul») tushunchasidan iborat bo‘lib, g‘arb namunasidagi yangicha usulda o‘qitishga asoslangan edi. Jadidchilik o‘zidagi qaysi belgilari bilan favqulodda hodisa edi? Uning fenomeni (noyoblighi) nimada? Ularning jamiyatdagi inqiroz va mutaassiblikni shu darajada aniq ko‘rishlariga, diniy, huquqiy va ahloqiy normalarga amaliy yondashishiga nima yordam berdi? Birinchidan, uning noyoblighi (fenomeni), avvalo, unda g‘oyatda yuqori darajadagi aql-idrokli, ham Sharq, ham Yevropa madaniyatiga xos bilimlarga ega bo‘lgan ziyolilar jamlanganligi bilan belgilanadi.

O‘tmishga nazar solib, uni o‘rganib, o‘z davrini tahlil qilgan jadidlar o‘z Vatanining kelajagi loyihasini tuza bildilar, uning rivojlanish yo‘llarini rejalashtirdilar. Ularning deyarli barchasi oliy diniy ta’lim olganlari, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy she’riyati, qadimgi Sharq mutafakkirlarining falsafiy asarlari ruhida tarbiyalanganlari, o‘z bilimlarini chet el madaniyati, jumladan, ham Sharq, ham G‘arb madaniyati yutuqlari bilan boyitdilar.

Turkistonda bu harakatning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ubaydulla Asadullaxo‘jayev, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Toshpo‘latbek Norbutayev, Xoji Muin, Abduqodir Shakuriy, Nosirxonto‘ra Kamolxonto‘rayev, Obidjon Mahmudov, Ashurali Zohiriy, Eshonxo‘ja Xonxo‘jayev, Is’hoqxon Ibrat, Buxoroda – Sadridin Ayniy, Fayzullo Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Mussa Saidjonov, Abdulvohid Burxonov, Usmon Xo‘jayev, Mirkomil Burxonov, Muhitdin Rafoat, Muhitdin Mansurov, Muxtor Saidjonov, Abduqodir Muhitdinov va boshqalar; Xivada – Boboovun Salimov, Polvonniyoz Xoji Yusupov, Avaz O‘tar, Husayn

Matmurodov, Nazar Sholiqorov, Otajon Abdalov, Xudoybergan Devonov, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Pozachi, Otajon Sadayev, Bekjon Raximov, Muhammad Devonzoda va boshqalar nomlarini alohida tilga olish zarur. Bular nafaqat halq ommasining ma’rifatli qilishga balki, mustaqillik g‘oyalarini shakllantirishda ham katta hissa qo‘shdilar.

Jadidchilik asta-sekin rivojlanib borgan. Ma’rifatparvarlik g‘oyasidan boshlangan bu harakat, keng quloq yozib borgan. Ma’rifatparvarlik bilan birgalikda, jadidlar eski ijtimoiy va siyosiy tizim taraqqiyotning ilg‘or shakliga o‘zgartirishga intilganlar. Lekin bu harakatning ikkinchi bosqichi edi. Ma’rifatparvarlik bosqichida, jadidlar o‘zlarining asosiy vazifasi sifatida yangi tizimdagi ta’limni yaratishni ko‘rdilar va bor kuchlarini shu islohotni amalga oshirishga sarfladilar. Maorif sohasidagi olib borilgan o‘zgarishlar to‘g‘risida keyinroq batafsil so‘z yuritamiz.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda «Jadidlarning rahbari» deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiyning xizmati beqiyos bo‘ldi. Jadidlar tarkibini yosh jihatdan tahlil qilish natijasida, jadidlarning Turkistonning bo‘lg‘usi davlat qurilishi dasturlarida, haqiqatan ham, yoshlar dunyoqarashi o‘z aksini topganligiga ishonch hosil qilamiz. 1910 yilda jadidlar safini asosan 19 yoshdan 36 yoshda bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik yoshlarning sevimli shoiriga aylangan Cho‘lpon, endigina 13 yoshda edi. Ularning hech birlari, siyosiy ta’qiblar tufayli keksalik yoshigacha yetib yashamaganlar.

Vatanimizdagi bu islohatchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqira yo‘lni bosib o‘tdi. Jadidchilik turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohatlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasini tanlab olib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda, ijtimoiy taraqqiyot haqidagi turli qarashlarning to‘qnashuv maydoni ham bo‘ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g‘oyasi, ana shu murakkab yo‘lda shakllanib yetildiki, bu g‘oyani biz bugungi kunda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning g‘oyaviy nishonasi, keng miqyosdagi islohatlarning nasliy asosi sifatida baholashimiz mumkin.

Markaziy Osiyoda jadidchilik serqirra bo‘lib, uning Turkiston, Buxoro, Xiva jadidchiligiga bo‘lish lozim. Xususan Buxoro va Xiva jadidchilik o‘ziga xos rivojlanib bu shu hudud aholisining (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy holati bilan bog‘liq edi). Jadidchilikning asosiy yo‘nalishi bo‘lib oqimlaridan biri – Buxoro jadidchiligi bo‘lgan. Buxoro jadidchiligi o‘z xususiyatlari va jamiyatning axloqiy ahvoli bilan bog‘liq edi. O‘ziga xos tarzda ajralib turadigan va murakkab shaxs bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev, uning maslakdoshlari Buxoro jadidchiligida markaziy o‘rin tutdilar.

Buxoro amirligida jadidlar ikki oqimga – eskicha fikrlaydiganlar va Fitrat

boshchiligidagi yoshlarga ajraldi. Natijada, o‘zaro kelishmovchiliklar mavjud bo‘lgan birlik yuzaga keldi. Bu holat esa kelishib olinmagan harakatlarga sabab bo‘ldi.

Xiva xonligida ham jadidchilik XX asr boshlarida bir muncha tarixiy sharoitlarda yuzaga keldi. Xonlikda jadidchilik harakati ikki yo‘nalishda mavjud edi. Uning o‘ng oqimi o‘ziga savdo – sanoat korxonalari egalari va yirik mulkdorlarni birlashtirdi. Bu oqimni Asfandiyorxonning bosh vaziri bo‘lgan – Islom Xo‘ja boshqargan. Ularning maqsadi, xonlik hokimiyatini saqlagan holda, ijtimoiy – iqtisodiy islohatlar o‘tkazgan holda bozor munosabatlarini rivojlantirish edi. Xiva jadidchiligining chap oqimiga mayda burjuaziya vakillari, hunarmandlar, ulamolar va aholining o‘rta qatlami kirgan. Bu oqimning rahbari Xiva xonligi shayxul – islomi, qozi kalon Boboxun Salimov edi. Lekin Birinchi jahon urushiga qadar Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo‘lmagan.

Buxorodagi jadidchilik harakati natijasida «yosh buxoroliklar» partiyasi tuzilgan bo‘lsa, o‘z navbatida Xivada jadidchilikning chap oqimidan «yosh xivaliklar» partiyasi tuzilib, uni Polvonniyoz Xoji Yusupov (Polyozxoji) boshqaradi. Partiya o‘z dasturiga ega bo‘lib, unga ko‘ra Xivada konstitutsion monarxiyani o‘rnatib, va unda demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirish lozim edi.

Jadidchilik harakatining eng muhim tomonlaridan biri ma‘rifatparvarlik g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu g‘oyalar o‘qish va o‘qitish usullariga isloh kiritish – yangi usul maktablarini tashkil etish, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G‘arb tillarini o‘rgatish, darsliklar yaratishda, ayniqsa, yorqin ko‘rinadi. Ular yangi tashkil etilgan maorif tizimi orqali shakllanib kelayotgan yoshlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishga intilganlar. Yangi usul maktablari Turkistonda jadid ma‘rifatchiligining dastlabki qadami bo‘lishi bilan birga to bu harakat siyosiy tus olguncha, ahamiyatini yo‘qotmadi.

1884 yilda Boxcharoyda Ismoilbek Gasprinskiy “usuli jadid” maktabini ochgan bo‘lib, bu maktablarda o‘qigan musulmon bolalari oz vaqt ichida dono va savodli, asta-sekin esa bilimli bo‘lib yetishar edi. Uningcha, eng muhimi musulmonlarning eski tartibdagi yodlab o‘qishlariga asoslangan ruhoniylarni o‘rganishini isloh etib, tovushlar asosida o‘zlashtirilgan alifbo bilan oz fursatda xat-savod chiqarishni joriy qilish, ma‘naviy ilmlar qatoriga zamonaga xos dunyoviy ilmlarni qo‘shish, huquq-tartibotlar asosini egallash, boshlang‘ich sinflar uchun alohida o‘qituvchilar tayyorlanishi lozim; o‘qituvchilar oylik maosh bilan ta‘minlanishi lozim; o‘qitish ma‘lum bir dastur asosida va darsliklar vositasida olib borilishi kerakligi va hokazo. O‘zining bu qarashlarini u 1883 yildan chop etiladigan «Tarjumon» gazetasi orqali targ‘ib eta boshladi. Bu masalaga keng doirada ahamiyat berib, «Vatanni sevmok, menimcha, uning maorifi uchun qayg‘urmoq,

unga yordam etmoqdir», - deb aytgan va maktab-maorif haqidagi yangicha nuqtai nazarni bevosita hayotga tatbiq etish yo‘lida tinimsiz xizmat qilgan. Shu maqsadda «Shirkati Buxoroi Sharif» Usmonxo‘ja va Hamidxo‘jalarni Boxchasaroy va Istambulga yuboradi, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy Qozon, Orenburg, Istambulga tashrif buyurdilar. Ular u yerdagi jadid maktablari tajribasi, matbuot, adabiyot va teatr bilan tanishishni ko‘zlagan edilar. Shunday qilib, Mahmudxo‘ja Behbudiy, G‘ozi Olim Yunusov, Abdurauf Fitrat va boshqalar Istanbul va Qohira universitetlarida, Mirmo‘hsin Shermuhammedov, Mo‘minjon Muhammadjonov, Lutfulla Olimi, Shokir Sulaymonlar Ufa va Orenburg madrasalarida o‘qiganligi haqida ma’lumotlar bor. U yerda ular Ismoilbekbek Gasprinskiy, Abdurashid Ibrohimov, Fotih Karimi va boshqa ma’rifatparvarlar faoliyatlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar.

XIX asr oxiri – XX asr boshidan Turkiston va Buxoro jadidlarining buyuk namoyandalari Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdulqodir Shakuriy, Hoji Muyin, So‘fizoda, Siddiqiy-Ajziy, Salohiddin domla va boshqalar “usuli jadid” maktablarini ochishga, yoshlarni dunyoviy bilimlarni egallashga, “millat ravnaqi”ga harakat qila boshladilar. Jadidlar yangi usuldagi maktablarda o‘qigan, ilmi va zamon talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalash uchun kurashdilar. Bu bilan ularni o‘lkaning ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy taraqqiyotida muhim o‘rinlarda bo‘lishi, Turkistonning ravnaq etishiga salmoqli hissa qo‘shishlariga ishonganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov o‘z o‘quvchilari uchun darsliklar ham yaratdi. U 1907 yilda “Adibi avval”, “Adibi soniy”, «Yer yuzi” darsliklarini yaratib, o‘quvchilarning bilim saviyasini oshirishda fidokorona mehnat qildi. Bu darsliklar 1901-1917 yillar oraliq‘ida eng kami 2-3, ko‘pi bilan 9-10 martagacha alohida-alohida holda nashr etilgan. 1905 yilda Behbudiy yangi usul maktabini Samarqandning “Kaftarxona” qishlog‘ida ochdi. Bu maktabda 40 ga yaqin o‘quvchi o‘qitilgan. Oddiy maktablarda 3-4 yil ichida o‘rganiladigan bilimlarni bu yangi maktabda o‘quvchilar bir yil ichida o‘zlashtirib olardilar. Bunday dalillar esa jadidlar tomonidan ochilayotgan yangi usul maktablari obro‘yining yanada oshayotganligini ko‘rsatardi.

Jadidchilik harakati shunday og‘ir sharoitda, hayotiy zaminda shakllana bordi, jamiyatning yosh, ilg‘or, eng taraqqiyparvar qatlamlarini eski konservativ tartibotlariga, chor hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash jarayonida voyaga yetkaza boshladi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’naviy jihatdan o‘shini ta’minladi.

Jadidlar o‘z faoliyatlarida ma’rifatparvarlik bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-siyosiy g‘oyalarni ham ilgari surdilar. Ularning vazifasi Turkistonni chor hukumati

mustamlakachiligidan ozod etish edi. O‘zlarining g‘oyalari, maqsadlari, vazifalarini targ‘ib etish yo‘lida Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon shaharlarida gazeta va jurnallar chiqara boshlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida 1906 yilning sentyabrida Toshkentda “Xurshid” gazetasi chiqarila boshlandi. Bu gazeta o‘sha davrdagi Turkistonning hayoti va mahalliy xalqlarining yashashlari to‘g‘risida, chor hukumatining olib borayotgan mustamlakachilik siyosatini tanqidiy tomondan yoritib berardi. Natijada, bu gazeta hukumat tomonidan qattiq siquv ostiga olinib, Munavvarqori Abdurashidxonov “Xurshid” gazetasi muharrirligidan bo‘shatilib, o‘rniga Abdulla Avloniy tayinlandi.

1907 yilda esa Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligida Toshkentda jadidlarning “Shuhrat” gazetasi chiqarildi. Haftada bir marta chiqadigan bu gazetada jadidlardan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Mulla Qo‘shoq, Tursunxo‘ja Hamidxo‘ja o‘g‘li va boshqalar o‘z maqola va she‘rlari bilan ishtiroq etganlar. Bu gazeta eskilikka, haqsizlikka, zulm-zo‘rlikka qarshi kurash boshladi va A. Avloniy ta’rif berganidek, «bir yoqdan ilmiy islohot uchun mafkura hozirlag‘on bo‘lsa, ikkinchi yoqdan el orasig‘a o‘zgarish tuxmini sochdi». Abdurashidxonov “Sadoi Turkiston”da (1914-1915 yy.) bo‘lim muharriri, “Najot” (1917), “Kengash” (1917), “Hurriyat” (1917), “Osiyo”, “Sur‘at”, “Haqiqat”, “Turon»da bosh muharrir bo‘lib ishlagan vaqtlarida ham xalq taraqqiyotiga halaqit berayotgan jarayonlarni, zararli urf-odatlarini ro‘yi-rost ochib tashladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy ham o‘sha davrdagi vaqtli matbuot sahifalarida Turkistondagi zulm va mahalliy istibdodga qarshi erk va ma‘rifat, madaniyat, milliy ozodlik va adolat uchun kurash g‘oyalarini targ‘ib etuvchi maqolalari bilan chiqishlar qilgan va bu kurashda hamma jadidlarni birlashishga chaqirgan. Uning publisistik chiqishlari 1917 yilga qadar Turkistonda Behbudiydan oldin turadigan ikkinchi bir kishining yo‘qligini ko‘rsatdi. Shuning uchun ham davlat va jamoat arbobi F.Xo‘jayev “o‘sha davrdagi Turkiston jadidlari orasida ham siyosiy, ham ijtimoiy faoliyat va bilimi kengligi jihatdan Mahmudxo‘ja Behbudiyga teng keladigani topilmasa kerak”, - deb yozgan edi.

Jadidchilik harakatining darg‘asi, buyuk ma‘rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqandda ruhoniylar oilasida tug‘ildi.

Tog‘asi Muhammad Siddiq yordamida xat-savod chiqaradi. Eski maktab-madrasada o‘qiydi. Arab tilini o‘rganadi. Qozixonalarda mirzalik, qozilik vazifalarida ishlaydi. 1893-1900-yillarda Makkaga haj safariga boradi.

1903-1904-yillarda Moskva, Peterburg, keyinroq Qozon, Ufa shaharlariga boradi. 1914-yilda Arabiston, Misr, Turkiya kabi bir qator mamlakatlarda bo‘ladi.

U o‘z davrining yirik islomshunoslaridan biri, muftilik rutbasiga erishgan zot edi. Behbudiy shu bilan birga hamisha bid’atga qarshi kurash olib bordi va o‘z asarlarida dini to‘g‘ri tushunishga va targ‘ib etishga da’vat etdi.

Vaqtli matbuot sahifalarida zamonasining dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-adabiy maqolalari bilan faol ishtirok etadi. Uning 10-yillar Turkiston matbuotida 300 dan ortiq maqolalari e’lon qilingani ma’lum. Ushbu maqolalarning markazida maktab, maorif, madaniyat, ma’rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti turadi.

1913-yilda u Samarqandda «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalini tashkil etadi. Har ikkala nashrning asosini ma’rifat-madaniyat, millat va ozodlik g‘oyalari tashkil qiladi. U 1911-yili «Padarkush» dramasini yaratdi.

Behbudiy yangi usuldagi maktablarning ilk targ‘ibotchi va asoschilaridan biri shuningdek, ana shu maktablar uchun darsliklar ham yaratgan yirik ma’rifatparvardir.

Behbudiy 1917-yilgi fevral va oktabr voqealaridan keyin Turkistonning mustaqil, ozod bo‘lishi uchun tinmay kurashdi va shu yo‘lda o‘z jonini fido qildi. U Turkistonning milliy davlat qurilishi masalasini o‘rtaga tashladi. O‘z xalqi taraqqiyotini nafaqat ma’rifatda, balki uning siyosiy maqomining keskin o‘zgarishida, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishida deb bildi. Uning Haq olinur, berilmas!» degan so‘zlari jadidlarning shioriga aylandi. U Turkiston Muxtoriyatini olqishladi. Uning hukumatiga a’zo sifatida saylandi. Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgandan so‘ng u siyosatdan bosh tortdi va Samarqandda maorif bo‘limi mudiri bo‘lib ishladi. Lekin mustaqillik umidlaridan voz kechmadi. Sovetlar hukumatining qirg‘inlari, adolatsizliklari avjiga kelganda, bu holni jahonga ma’lum qilish uchun yo‘lga otlangan Behbudiy Buxoro amiri tomonidan hibsga olinib, 1919-yilning bahorida Qarshi shahrida qatl etiladi. M.Behbudiy qabrining qayerdaligi noma’lum.

Jadidlar o‘z asarlarida asosan Turkiston va Buxorodagi mavjud urf-odatlar, eski madrasa ta’limi, xurofot va jaholatni, mahalliy boylarning savodsizligini tanqid ostiga oldilar. Ular o‘lkani madaniy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy qoloqlikdan qutqarish uchun dunyoviy va diniy ilmlarni o‘rganuvchi yoshlar kerakligini o‘qtirdilar. Bunday yoshlar rivojlangan mamlakatlarning shaharlari Moskva, Sankt-Peterburg, Istambul, Berlin, London, Parij oliy maktab va madrasalarida ta’lim-tarbiya, savod va ma’rifat olganligi, ularning Turkistonga kerakligini ommaga targ‘ib qildilar. Jadidlarning bu g‘oyaviy qarashlari shu davrdagi qator maqola va asarlarda, ayniqsa, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” (“Otasini o‘ldiruvchi”) (1911) pyesasida ziyolining savodsiz bo‘yga o‘g‘lini diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor qilish zarurligi borasida bergan nasihatlarida ochiq-

oydin ko‘rinadi. Kundan kunga bu gazeta va jurnallarning soni ko‘paya bordi. 1917 yilgi fevral inqilobiga qadar “Taraqqiy” (1906), “Xurshid” (1907), “Tujjor” (1907), “Shuhrat” (1907), “Osiyo” (1908), “Samarqand” (1913), “Sadoi Turkiston” (1914), “Sadoi Farg‘ona” (1914) gazetalari, “Oyna” (1914), “Al-isloh” (1915) jurnallari xalq ommasi orasida keng tarqaldi. Manbalar guvohlik berishicha, jadid gazetalari mahalliy xalqni madaniyat va ma’rifatga chorlagan. Bu gazetalar asta-sekin bo‘lsa-da, barcha eskirgan aqidalarga qarshi mahalliy xalqning ko‘zini ochishga harakat qildi.

Turkistonda ma’rifatchilik Ovro‘po ma’rifatchiligidan farqli o‘laroq ikki asosiy yo‘nalishda kechdi. Agar Ovro‘po ma’rifatchiligi ilg‘or qarashlar mahsuli bo‘lib maydonga chiqqan bo‘lsa, Sharq ma’rifatchiligi unga yonma-yon antikolonial kayfiyatni ham ifoda etdi. Mohiyatan ilg‘or va antikolonial negizga ega bo‘lgan ma’rifatchilik ilk pallalarda, asosan qoloq tartibotlarga qarshi kurash xususiyatini namoyon qildi. Chunki mustamlaka hukmronligiga qarshi quruq diniy ehtiroslar va faqat xususiy fidoyilik bilan kurashish mumkin emasligi qator stixiyali qo‘zg‘olon va isyonlarning achchiq tajribasidan, qolaversa, jahon tarixi saboqlaridan yaxshi ma’lum edi. Shu bois, avvalo ijtimoiy-milliy ong shakllanmog‘i uchun eng katta to‘siq bo‘lib turgan diniy mutaassiblik, jaholat, qoloq turmush tarzi, iqtisod, madaniyat va ma’naviyatning zaharli ko‘rinishlariga qarshi kurash joriy maqsadga aylandi. O‘quv jarayoni, diniy hamda boshqa mafkuraviy institutlarni isloh qilish harakati keng miqyos kasb etdi.

Yangi davr o‘zbek madaniyati, adabiyotining asoschilaridan bin, bolalar adabiyoti, o‘zbek milliy teatri, dramaturgiyasi, matbuoti, o‘zbek milliy pedagogikasining tamal toshini qo‘ygan, xalqimizning asl farzandi Abdulla Avloniydir (1878-1934).

Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentning Mergancha mahallasida to‘quvchi Miravlon aka oilasida tavallud topdi. Avval o‘qchidagi boshlang‘ich maktabda, so‘ng shahar madrasalaridan birida tahsil oldi. Biroq ko‘proq mustaqil o‘qib-o‘rgandi, tez orada o‘z davrining savodxon, ma’rifatparvar kishisiga aylandi. Avloniy asrimiz boshlarida o‘lkamizda avj olgan Jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodxon qilish, ulardan yetuk olimlar, mutaxassislar tayyorlash, Vatanni ozod ko‘rish, farovon etish yo‘lida fidoyilik bilan mehnat qildi. Ana shu maqsadda juda ko‘p sohalarda faol ish olib bordi. 1907-yilda o‘z uyida «Shuhrat» nomli gazeta nashr qildi. U mahallasida yangi usuldagi maktab ochdi. «Usuli jadid» maktablari uchun to‘rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she’rlar», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darslik va o‘qish kitoblari tuzdi. Maktab-maorif ishlariga yordam ko‘rsatish maqsadida xayriya jamiyati tashkil qildi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do‘konini ochdi.

Abdulla Avloniy o‘zbek teatrining taraqqiyotida ham alohida xizmat ko‘rsatdi. Uning «Turon» truppasi (1913) o‘lkamizda tashkil etilgan birinchi professional teatr truppasi edi. Adib dramaturgiyada ham unumli faoliyat olib bordi. Tatar, ozarbayjon dramaturglarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qildi, o‘zi ham «Pinak», «Advokatlik osonmi», «Biz va siz» nomli pyesalar yozib, sahnaga qo‘ydi.

Fevral va oktabr voqealaridan so‘ng Avloniy «Turon» nomli gazeta nashr etib, unda ilg‘or qarashlarni ilgari surdi.

1919-1920-yillarda Afg‘oniston elchixonasida bosh konsul vazifasida ishladi. Xizmatdan qaytgach, ma‘rifatparvarlik faoliyatini davom ettirdi. Harbiy o‘quv yurtida, O‘rta Osiyo davlat universitetida O‘zbek tili va adabiyotidan dars berdi, professor darajasiga ko‘tarildi. Ma‘rifatparvar adib, dramaturg, pedagog, noshir va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1934-yil 25-avgustda Toshkentda vafot etdi. Toshkentdagi Botkina qabristoniga dafn etilgan.

Adib, murabbiy, muharrir, ma‘rifatparvar, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li 1878-yilda Toshkent shahrining Shayx Xovand Tohur dahasi Darxon mahallasida mudarris oilasida tug‘ildi. Toshkentdagi Yunusxon madrasasida o‘qidi, so‘ngra tahsilini Buxoroda davom ettirdi, Toshkentga qaytgach, Darxon masjidida imomlik vazifasini bajaradi.

Munavvar qori XIX asrning oxiridan boshlab Jadidchilik harakatlarida faol ishtirok eta boshladi. 1901-yilda o‘z hovlisida, keyinchalik Toshkentning turli dahalarida jadid maktablarini ochadi. Bu maktablar uchun 1907-yilda «Adibi avval», «Adibi soniy1’ darsliklarini yaratadi. «Tajvid al-Qur‘on», «Yer yuzi» singari qo‘llanmalarni tuzib, nashr etadi. Bolalar uchun qator she‘riy va nasriy hikoyalar yozadi.

U 1909-yili Toslikentda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tuzadi va «Turon» nomli jamiyatni ochadi. Munavvar qori 1906-yilda dastlabki o‘zbek matbuoti namunalaridan biri «Xurshid» gazetasini nashr etdi. Keyinchalik «Najot», «Kengash» gazetalarda bosh muharrir, «Sadoyi Turkiston»da esa bo‘lim muharriri bo‘lib xizmat qiladi.

Munavvar qori 1917-yil fevral inqilobidan keyin Turkistonda demokratik milliy davlatchilikni tuzish g‘oyasini ilgari surdi. U Qo‘qonda tashkil topgan Turkiston Muxtoriyatini qo‘llab-quvvatladi.

Sho‘ro davrida u o‘zining ochiq ma‘rifiy ishlarini va yashirin siyosiy harakatlarini davom ettirdi. 1918-yilning aprelida Turkiston xalq dorilfununining asoschisi va rektori etib saylanadi. uning sa‘y-harakati bilan 1918-yil 2-iyunda dorilmuallimin ish boshlaydi. U 1918 yilda «Turk o‘chog‘i» ilmiy-ma‘rifiy jamiyatini tashkil qiladi.

Munavvar qori 20-yillarda o‘zbek yurtining mustaqilligi uchun kurash vazifasini

o‘z oldiga qo‘ygan «Milliy ittihad» va «Milliy istiqlol» yashirin tashkilotlariga rahbarlik qilgan.

20-yillarning o‘rtalarida milliy ziyolilarni ta’qib qilish kuchayishi natijasida Munavvar qori hamma lavozimlardan chetlashtiriladi. Biroq hatto qatag‘on ham Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘lini istiqlol g‘oyalaridan qaytara olmadi.

U 1929-yilda qamoqqa olinadi va 1931-yilda otib o‘ldiriladi. Uning xoki Moskvadagi Vagankovo qabristonidir.

Davlat, jamoat va siyosat arbobi, Turkistonning yirik sarmoyadorlaridan biri. Obidjon Abdulxoliq o‘g‘li Mahmudov Farg‘ona taraqqiyparvarlarining peshqadam vakilidir. U Peterburg universitetini tamomlagan, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan birinchi tog‘-kon muhandisi edi.

Uning tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida 1914-yili Qo‘qonda bosmaxona tashkil qilinadi va Farg‘ona jadidlarining «Sadoyi Farg‘ona» gazetasi nashr etila boshlaydi. Mazkur bosmaxonada «Sadoyi Farg‘ona» bilan birga rus tilida «Ferganskoye exo» gazetasi ham nashr etiladi. «Sadoyi Farg‘ona» gazetasi nafaqat Turkistonda, balki Rossiya musulmonlari orasida ham mashhur bo‘lgan.

Obidjon Mahmudov jadid matbuotida dolzarb maqolalari bilan qatnashib, ma’rifat, ozodlik, hurlik g‘oyalarini targ‘ib etishga, xalqning ongini, saviyasini ko‘tarishga intildi.

O.Mahmudov Turkistonning mustaqil respublika bo‘lishi tarafdori va bunga yetishish uchun faol harakat qilgan jadidlardan biri edi.

1917-yilda Turkiston Muxtoriyati hukumati tashkil etilgach, O.Mahmudov Oziq-ovqat noziri vazifasiga saylanadi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1918-yil fevral oyida Turkiston Muxtoriyati bolsheviklar tomonidan zo‘rlilik bilan ag‘dariladi. Shundan so‘ng jadidlarning bir qismi o‘z g‘oya va maqsadlarini sovet hokimiyati idoralariga joylashgan holda amalga oshirmoqchi bo‘ladilar. O.Mahmudov ham shu kezlarda sovet davlati idoralarida xizmat qilib, millatparvarlik, taraqqiyparvarlik faoliyatini davom ettirdi.

Atoqli ma’rifatparvar Obidjon Mahmudov 1936-yilning 21-noyabrida vafot etdi.

Ma’rifatparvar, pedagog Abduqodir Shakuriy 1875-yilda Samarqandning Rajabamin qishlog‘ida bog‘bon oilasida tug‘ildi.

Shakuriy eski usuldagi maktabni tamomlaganidan keyin Samarqand shahridagi madrasaga o‘qishga kiradi. Shakuriy rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib qoidalari va o‘qitish usullari bilan tanishadi. Shundan keyin yosh muallimda o‘z xalqining bolalari uchun ham shu tartibdagi yangi maktab tashkil qilish orzusi paydo bo‘ladi.

Abduqodir Shakuriy Samarqand gimnaziyasida ko‘rgan va o‘zi orzu qilgan yangi o‘qitish usullari Rossiyaning turli joylarida yashagan boshqa turkiy xalqlarda ham

mavjudligini gazetalardan bilib oladi.

Shakuriy do‘stlari yordamida Qo‘qon shahriga boradi va u yerda yangi maktabdagi o‘qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, o‘z qisblogo‘i Rajabaminda 1901-yilning kuzida birinchi yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi.

Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala boshladi, o‘rta Osiyodagi boshqa ma‘rifatparvar kishilarning diqqatini jalb etdi.

Shakuriy faqat o‘qituvchilik qilish bilangina cheklanib qolraaga, u o‘z maktabi uchun darsiiklar yozib, ularni o‘z mablag‘lari hisobiga nashr qildirgan. Masalan. uning «Rahnamoyi savod» («Savod chiqarish qo‘llanmasi») deb atalgan kitobi shu tariqa chop etilgan. Shakuriy dastlab qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilgan. Unda o‘zi rahbarligida rafiqasi muallimalik qilgan. Keyinchalik o‘g‘il va qiz bolalar guruhini hirlashtirib o‘qita boshlagan.

1921-yilda Samarqand shahridagi 13-maktabga mudir qilib tayinlanadi. U bolalarni tarbiyalash, o‘qitishga katta g‘ayrat bilan kirishdi. ko‘p yillar davomida shu maktabning mudiri hamda ona tili va adabiyot o‘qituvchisi vazifalarida ishladi.

1925-yilda A.Shakuriyning tashabbusi bilan qishloq aholisi o‘z mablag‘lari hisobiga to‘rt sinfli yangi maktab qurib ishga tushiradi. Abduqodir Shakuriy 1943-yilda vafot etadi.

Is‘hoqxon Ibrat ma‘rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o‘zbek matbaatchilaridan bo‘lib, 1862-yilda Namangan yaqinidagi To‘raqo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilgan.

Dastlabki ma‘lumotni eski maktabda, so‘ngra onasining qo‘lida oladi. Keyinroq Qo‘qonga borib madrasaga o‘qishga kiradi.

Ishoqxon Ibrat 1886-yilda madrasani tugatib, To‘raqo‘rg‘onga qaytib keladi. U o‘z faoliyatini pedagog sifatida qishloqda ma‘rifat tarqatish bilan boshladi. o‘sha yili eski mahalliy maktablardan ancha farq qiluvchi yangicha maktab ochadi.

Ishoqxon Ibrat 1887-yilda haj safariga otlanadi. So‘ng u Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohatni davom ettiradi. Yevropaning Istambul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida bo‘ldi, ancha vaqt Jidda shahrida istiqomat qiladi, Bombay va Kalkuttada yashaydi. Is‘hoqxon u yerlarda ko‘p ishlatiladigan arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi. U 1896-yilda o‘z vataniga qaytib keldi. 1901-yilda «Lug‘ati sitta-alsina» asarini bosmadan chiqaradi. Mazkur lug‘at jadid maktablarida sharq va rus tillarini o‘rganishda birdan bir qo‘llanma sifatida foydalanib kelindi.

Ishoqxon Ibrat 1912-yilda yozuvlar tarixiga bag‘ishlangan «Tome ul-xutut» («Yozuvlar majmuasi») asarini yaratdi va o‘z matbaasi «Matbaayi Is‘hoqiya»da

bosmadan chiqardi.

Ibrat chin qalbdan o‘z xalqining ilmi, ma’rifatli bo‘lishini istadi. Keyingi 20-yil ichida 14 ta ilmiy-tarixiy, lingvistik asar yozdi. 30 yillik poetik ijodining majmuyi bo‘lmish «Devoni Ibrat» she’rlar to‘plamini tuzdi. Tarixshunoslikka oid «Tarixi Farg‘ona», «Tarixi madaniyat» va «Mezon uz-zamon» ilmiy asarlarini yaratdi.

Ibratning so‘nggi yillardagi hayoti ancha tahlikali o‘tdi.

1935-yildan u hamma lavozimlardan olib tashlandi. 1937-yilning aprel oyida 75 yoshli kekxa shoir va ma’rifatparvarni hibsga oladilar. Ibrat Andijon turmasida vafot etadi. Ishoqxon Ibrat qabrining qayerdaligi noma’lum.

Taniqli ma’rifatparvar, yirik tilshunos, lug‘atshunos, adabiyotshunos olim, jurnalist va tarjimon, Turkistondagi jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri Ashurali Zohiriy 1885-yili Qo‘qonda tug‘ilgan. U dastlab Qo‘qondagi Madalixon madrasasida tahsil ko‘radi, arab va fors tillarini puxta egallaydi, o‘zbek va fors-tojik mumtoz adabiyotini o‘rganadi. Har tomonlama bilim sohibi bo‘lgan A.Zohiriy 1907-yildan boshlab rus-tuzem maktabida, shuningdek, jadid maktabida o‘zbek tili va adabiyotidan dars beradi. 1912-1919-yillarda esa pedagogik faoliyat bilan birga jurnalist sifatida ham qizg‘in ish olib boradi. 1917-1918-yillarda Turkiston Muxtoriyati hukumatining barpo etilishi A.Zohiriy faoliyatiga yangicha yo‘nalish bag‘ishlaydi. U «El bayrog‘i» gazetasiga muharrirlik qilib, Muxtoriyat g‘oyalarining keng xalq ommasi o‘rtasida tarqalishiga munosib hissa qo‘shadi.

A.Zohiriy faoliyatining 1917-yildan keyingi asosiy yo‘nalishi ma’rifatparvarlik bilan bog‘liq. U Qo‘qondagi birinchi dorilmuallimning tashkilotchisi va dastlabki zamonaviy maktablarning muallimi sifatida Farg‘ona vodiysi uchun ko‘plab o‘qituvchilarni yetishtirib berdi. U asos solgan dorilmuallimin keyinchalik pedagogik texnikumga aylantirildi. 1930-yili esa shu texnikum bazasida Farg‘ona davlat pedagogika instituti tashkil etildi.

A.Zohiriy erkparvar g‘oyalari uchun 1929-yil noyabrda hibsga olinib, o‘n yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Qamoq muddatini tugatgach, alloma yana sevimli kasbi ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanadi. Ammo 1937-yilda qatag‘on bo‘roni avj olgach, u yana qamoqqa olinib, o‘sha yilning 4-dekabrda otib tashlanadi. A.Zohiriy qabrining qayerdaligi noma’lum.

To‘lagan Xo‘jamyorov - Tavallo XX asr boshlari Toshkent adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan edi.

U 1882-yili Toshkentning Ko‘kcha dahasida ziyoli oilada tug‘ildi. Avval eski maktabda, so‘ng Beklarbegi madrasasida tahsil oldi. Beklarbegi madrasasi bu davrlarda

Toshkent adabiy hayotining markazlaridan biri edi. Tavallo shu yerda Karimbek Kamiy, Miskin, Xislat, Yusuf Saryomiy kabi zamonasining atoqli shoirlari bilan tanishadi. Ayniqsa, Yusuf Saryomiy bilan yaqin aloqaga kirishib, uni o‘zining piri, ustoz sifatida e’tirof etadi. «Tavallo» deb taxallus olishi ham mazkur ustoz davlati bilan bo‘ladi.

Tavallo o‘zi yashab turgan voqelik mohiyatini, Turkistonning chor istibdodi ostida huquqsiz, zabun bir qismatga mahkum ekanligini anglagan pallada, ya’ni 1905-yillardan boshlab Jadidchilik harakatlariga qo‘shiladi. Bu harakatning barcha muhim jabhalarida ishtirok etadi. Xususan, milliy matbuotimizning ilk namunalari hisoblangan «Taraqqiy», «Shuhrat», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg‘ona» gazetalarida uning she’r va maqolalari muntazam chiqib turadi. 1914-yil avgustida toshkentlik taraqqiyparvar yoshlar tomonidan tashkil etilgan «Nashriyot» shirkati muassislari qatorida To‘lagan Xo‘jamyorov nomi ham uchraydi. 1913-yilning o‘rtalarida Toshkentda birinchi milliy teatr truppasi faoliyat boshlaydi. 1914-yilning 27-fevralida «Kolizey» teatr binosida namoyish etilgan «Padarkush» spektakli shu truppaning ilk milliy teatr tomoshasi edi. Tavallo bu harakatning ham tashkilotchilari va jonkuyarlari qatorida ko‘rinadi. Ana shu voqeaga bag‘ishlab maxsus she’rlar yozadi.

1916-yili Tavallo o‘zining matbuotda e’lon qilingan va bosilmagan she’rlarini to‘plab, «Ravnaq ul-islom» nomi bilan chop ettiradi. To‘plamda yetmishga yaqin she’r jamlangan bo‘lib, ularning deyarli barchasi ma’rifatparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan.

Tavallo 1917-yil oktabr to‘ntarishidan so‘ng turli idoralarda ishladi. «Mushtum» jurnalida hajviy she’rlar bilan faol ishtirok etdi.

Shoir 1937-yili ko‘plab safdosh hammaslamlari qatori haqsizlik qurboni bo‘ldi. Hibsga olinib, qamoqda vafot etdi. Tavallo qabrining qayerdaligi noma’lum.

Atoqli ma’rifatparvar, Turkistondagi milliy ozodlik harakatining taniqli namoyandalaridan biri Saidnosir Mirjalilov 1884-yili Turkiston shahrida tavallud topgan.

Yoshligidan o‘ta ziyrak, tadbirkor va mehnatkash bo‘lgan Saidnosir tujjorlik faoliyatini kichik bir gazlama do‘konini ochishdan boshlagan. Ko‘p o‘tmay u Turkistonda birinchi jadid maktabini tashkil etgan. 1914-yilda paxta zavodini qurib, Turkistonning taniqli boylari va savdogarlaridan biri sifatida shuhrat qozongan.

S.Mirjalilov 1917-yil siyosiy faoliyatga o‘tadi. Fevral inqilobidan so‘ng u Toshkentda tashkil etilgan «Sho‘royi islomiya» tashkilotining faol a’zolaridan biriga aylandi. Turkiston mustaqillikka erishishini orzu qilgan Saidnosir Mirjalilov tijoratchi sifatida topgan sarmoyasining katta qismini milliy ittihad va istiqlol uchun olib borilgan kurashga bag‘ishladi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining barpo etilishida faol ishtirok etdi va hukumat

a’zosi etib saylandi. Muxtoriyat qonga botirilib, uning rahbarlari ta’qib ostiga olingach, S. Mirjalilov xorijga ketishga majbur bo‘ldi va dastlab Samaraga borib, Turkistonda ro‘y berayotgan xunrezliklarga chek qo‘yish yo‘llarini axtardi, so‘ng Turkiya va Tiflisda bir muddat yashadi. Bolsheviklar e‘lon qilgan umumiy afvga ishonib, u 1921-yili vataniga qaytdi. U «Turkiston» savdo-sanoat shirkatini tashkil qilib, undan tushgan foyda evaziga «Ko‘mak» jamiyati orqali iste’dodli yoshlarni Germaniya va boshqa mamlakatlarga o‘qishga yuborish, «Nashri maorif jamiyati faoliyatini avj oldirish ishiga o‘z ulushini qo‘shdi. Lekin bolsheviklar kuzatuvidan ozod bo‘lmagan S.Mirjalilov 1925-yil 12-dekabr kuni hibsga olinib, Solovetsk orollariga qamoqqa yuborildi. U uch yillik qamoq muddatini o‘taganidan keyin 1932-yili yana besh yil muddatga qamaladi, nihoyat 1937-yil 21-iyul kuni takror hibsga olinib, o‘sha yilning 25-oktabrida otib tashlandi. Saidnosir Mirjalilov qabrining qayerdaligi noma’lum.

Milliy uyg‘onish davrining yirik vakillaridan biri, shoir Saidahmad Siddiqiy - Ajziy 1864-yil Samarqand viloyatining Jomboy tumani Halvoyi qishlog‘ida hunarmand oilasida tavallud topdi. Yoshligida otasi vafot etib, bobosi qo‘lida voyaga yetdi. Yangasi qo‘lida savod chiqardi. Keyin Samarqand va Buxoro madrasalarida tahsilni davom ettirdi. Sharq klassik adabiyotini qunt bilan o‘rganadi, arab, fors, ozarbayjon va keyinchalik rus tilini o‘zlashtiradi.

1880-yillardan o‘zi ham an’anaviy usuldagi she’rlar mashq qila boshladi. Biroq zamonasining buyuk kishilaridan biri sifatida e’tirof etilishiga uning ma’rifatchilik faoliyati va ijodi sababdir.

1901-yil haj safariga otlanadi. Bir qator Sharq mamlakatlarida bo‘lib, islom dunyosidagi yangiliklar bilan tanishadi, bir necha muddat Jiddada Rusiya elchixonasida tilmochlik qiladi. So‘ng Moskva, Peterburg shaharlarini aylanib, Tiflisga o‘tadi. Nihoyat Samarqandga qaytib, 1903-yil Halvoyi qishlog‘ida yangi maktab ochadi.

Shoir keyingi butun hayotini ana shu muqaddas ishga sarf etdi. O‘zi ochgan maktabda tabiiy fanlar, arab hamda rus tillaridan saboq berdi, darsliklar tuzdi.

Siddiqiy vaqtli matbuot nashrlarida ham faol ishtirok etdi. Vatan, ilm-ma’rifatga bag‘ishlangan maqolalari bilan Qozon, Orenburg va Kavkazdagi nashrlarda ham qatnashdi. 1914-yili o‘z tashabbusi bilan «Zarafshon» nomli kutubxona ochdi.

1910-yillarda shoir «Ayn ul-adab» («Adab ko‘zi») va «Ganjinayi hikmat» («Hikmatlar xazinasi») nomli o‘zbek va tojik tillaridagi ikki she’riy to‘plamini hamda «Mir’oti ibrat» («Ibrat oynasi»), «Anjumani arvoh» («Ruhlar yig‘ini») nomli dostonlarini yaratdi. Siddiqiy 1917-yili «Ittifoq» tashkiloti tomonidan shahar dumasiga vakil qilib saylandi. Samarqand musulmon sho‘rosining rais muovini, viloyat adliya noziri bo‘lib

ishlaydi. Lekin u 1921-yildan barcha rasmiy ishlardan voz kechib, qishlog‘ida, o‘zi ochgan maktabda muallimlikni davom ettiradi. 1926-yili qattiq kasallanib, 1927-yilning iyul oyida Samarqandda vafot etadi.

Ma’rifatparvar ziyoli, shoir Muhammadsharif So‘fizoda o‘zbek madaniyati tarixida yorqin iz qoldirgan zotlardandir.

Muhammadsharif Egamberdi o‘g‘li 1869-yil 29-yanvarda Chustda tug‘ildi uning otasi pichoqchi - hunarmand edi. U mahallasidagi qo‘shnisi Manzura otinda savod chiqardi. 1893-1898-yillarda u Qo‘qonda yashadi va madrasada ta’lim oldi. Qo‘qon adabiy muhitining mashhur shoirlari Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nodim Namangoniy bilan yaqin munosabatda bo‘ldi. Bo‘lajak shoir dastlabki she‘rlariga Muqimiy tavsiyasi bilan «Vahshiy» taxallusini qo‘lladi.

So‘fizoda 1893-yilda ona shahri Chustda boyonlami, chor amaldorlarini, mutaassiblarni hajv qiluvchi she‘rlari uchun «badasl», «beadab», «dahriy» deb ayblanadi va o‘linga hukm qilinadi. Shoir o‘z vatanini tark etishga, 14 yil turli mamlakatlarda istiqomat qilishga majbur bo‘ldi.

So‘fizoda 1900-1913-yillarda O‘rta Osiyoning turli shaharlarida, Tiflis, Boku, Arabiston, Hindiston, Turkiyada bo‘ldi. U qayerda yashamasin, Toshkent, Kavkaz, Qrim, Orenburg, Turkiyada chop etiladigan gazetalar bilan aloqasini uzmad. Uning maqolalari, she‘rlari «Turkiston viloyatining gazetasi», «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg‘ona» gazetalarida muntazam chiqib turdi.

1913-yilda So‘fizoda chet el safaridan Chustga qaytib keladi va usuli jadid maktabi ochadi. Kamarsada qishlog‘ida yetim bolalar uchun «Dorulaytom» («Yetimlar uyi») va kattalar uchun kechki maktab tashkil qiladi. Bu maktablarda u ona till, handasa kabi fanlarni o‘qitdi.

Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qoloq iqtisodiy va madaniy sharoitda yashayotgan halqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohatlar o‘tkazish, pirovardida, milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan harakat sifatida, tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi. Bu harakat o‘zining shakllanish yo‘lini bosib o‘tar ekan, asr boshlaridan 1917 yil fevral inqilobiga qadar bo‘lgan birinchi bosqichda, milliy ozodlik harakati sifatida uzil – kesil rasmiylashdi. Jadidlar paydo bo‘lgan ilk kunlardan oq boshlaboq, ular ham chor hokimiyati, ham mahalliy hukmdorlarning qarshiliklariga duch keldilar. Binobarin, ular halqni shu ikki zulm o‘chog‘idan, shu ikki qoloqlik botqog‘idan xalos etmoqchi bo‘lgan edilar. Abdulla Badriy «Yosh buxoroliklar kimlar» degan risolasida jadidlarni ko‘zda tutib, bunday yozgan edi: «.....Onlarning fikri xayollari va

muddalari biz, bechora va qashoqlarni g‘urbatdan, ya’ni amirlar, beklar va boylarning zulmlaridan ozod qilmoq va bizlarning rohatimiz va tinchligimiz uchun harakat va taraddud qilmoqdir».

Fevral inqilobining ro‘y berishi va chor hokimiyatining falajlanishi bilan u o‘zining piravard siyosiy maqsadi – mustaqil davlatni barpo etish g‘oyasini amalga oshirishga kirishdi.

Jumladan, jadidchilikning ko‘zga ko‘ringan vakillardan M.Behbudiy, Munnavarqori Abdurashidxonov, U Xo‘jayev va boshqalar Toshkent, Orenburg, Qo‘qonda bo‘lib o‘tgan Rossiyadagi musulmon halqlarining ijtimoiy-siyosiy yig‘inlarida, masalan I Butun Rossiya musulmonlar syezdi, Butun Qozoq qurultoyi va Butun Turkiston musulmonlar se‘zdlari shu jumlasidandir. Bu uchrashuvlarda ular birinchi marta boshqa xududlardagi muxtoriyatchilik harakati vakillari bilan hamkorlik qiladilar. Keyinchalik, jadidlarning davlat tizimi haqidagi qarashlarining hayotda amalga oshmay qolishga, bolsheviklarning hokimiyatni zo‘ravonlik bilan egallashlari to‘siq bo‘ldi.

Shunga qaramay, jadidlar o‘z faoliyatlarini to‘xtatmadilar. Turkiston mustaqilligi yo‘lidagi kurashda M.Abdurashidxonov, U Xo‘jayevlar o‘zlarining g‘oyaviy do‘stlari taniqli boshqird siyosiy arbobi Ahmad Zaki Validiy va boshqalar bilan «Milliy istiqlol (ittihod)» maxfiy tashkilotida hamkorlikni olib borganlar. 1920 yilda Buxoroda «milliy ittihod tashkil topib» Buxoro shahrida Zakiy Valiydining kelishi bilan bu tashkilot o‘z faoliyatini kengaytirdi. Uning a‘zolari butun Turkiston tuprog‘i bo‘yicha harakat qildilar. Tashkilotning asosiy maqsadi Buxoro jumhuriyati va umuman, Turkistonni «Sovetlashtirish-ruslashtirish» ta’siridan saqlab qolish chin ma’nodagi mustaqillik va taraqqiyotga erishishi edi. Tashkilotda F.Xo‘jayev, Otaulla Xo‘jayev, Fitrat, Muinjon Aminov, Mukomil Burhonov, Ibod Xo‘jayev va boshqalar faol ish yuritganlar.

M.Behbudiy vafotidan keyin Munavvarqori jadidchilik harakatining ayniqsa, uning maxfiy faoliyati («Milliy Ittihod»)ning birdan bir yirik raxbariga aylanadi. Bu tashkilot ham, Turkistonning milliy birligi, komfirqa siyosatini fosh qilish, kishilarga istiqlol g‘oyasini singdirish uchun kurashdi.

Maxfiy tashkilot – «Milliy istiqlol» 1929 yil oktyabrning 12 yillik bayrami arafasida OGPU tomonidan fosh etiladi. 6 noyabrdan 26 kishi, keyinroq, jami 87 kishi qo‘lga olinib, rosa bir yilu besh oy oldin Toshkent, keyin Moskva avaxtaxonalarida qattiq azob bilan tergov qilindi. Nihoyat, 1931 yil 25 aprelda ularning ustidan SSSR Birlashgan Bosh Siyosiy Boshqarmasi (OGPU)ning sudlov kollegiyai «oliy hukm» chiqardi. Buning uchun bor yo‘g‘i bir necha daqiqa vaqt sarflandi. Ayzenterg degan kimsa ma’ruza qildi. Shu kollegiyada yana boshqa 19 ta vatandoshimizning «jinoiy ishi» to‘g‘risida ham u

ma’ruza qiladi. Ularga ham tegishli «oliy jazo» belgilandi. Kollegiya «milliy istiqloq» ishi bo‘yicha ayblanganlarning 15 tasiga otuv, 25 tasiga 10 yillik, 21 tasiga 5 yillik, 15 tasiga 3 yillik konslagerga yuborish, 3 tasiga SSSRning 12 ta belgilangan shaharlarida yashash huquqidan mahrum qilingan holda, qamoqdan ozod qilinishi haqida qaror qabul qiladi.

Tarixiy tajribaning ko‘rsatishicha, milliy o‘zlikni anglashning o‘shishiga muhim turtki bo‘lgan va milliy ozodlik g‘oyasini shakllantirib, o‘z faoliyati bilan uni amalga oshirishga uringan – jadidchilik harakati – jahondagi umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, Mustaqillik yillarida jadidchilik bo‘yicha juda ko‘plab tadqiqotlar olib borildi. Tarixchi, faylasuf, adabiyotshunos tadqiqotchilar jadidchilik harakati va uning namoyondalari faoliyati haqida ko‘plab kitoblar, monografiyalar va ilmiy ishlar yaratdilar. Bularning qatoriga Ozod Sharofiddinov, Begali Qosimov, Naim Karimov, Dilorom Alimova va boshqalar nomini keltirib o‘tish zarur .

Jadidchilik harakatiga bo‘lgan qiziqishning toboro keng qanot yozganligini, bu mavzu bilan Germaniya, Fransiya, AQSh, Yaponiya va Turkiya singari mamlakatlardagi olimlarning ham shug‘ullanganligini aytish joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Жадидчилик: ислоҳот, янгилашиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. №1. –Т.: Университет. -1999.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Т.: Маънавият, 2002.
3. Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти. Миллий – демократик давлатчилик курилиши тажрибаси. –Т.: Маънавият, 2000.
4. Холбоев С. Миллий университетнинг тарихий илдизлари ва ташкил топиши [Жадидларнинг миллий университетга асос солганлиги ҳақида монография] –Т.: «Шарқ», 2003.
5. Холбоев С; Эгамов Б. Туркистон жадидчилиги - миллий уйғониш даврида география фани ва таълими. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашрийти, 2010.
6. Дўстқороев Б. Ўзбекистон журналоистикаси тарихи (1-қисм. 1870 – 1917 ноябр). Дарслик.-Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2009.
7. Алимова Д.А. Джадидизм в Средней Азии. Пути обновления, реформы, борьба за независимость. –Т.: Узбекистан, 2000.
8. Абдурашидхонов М. Хотираларимдан. (Жадидчилик тарихидан лавҳалар). –Т.: Шарқ. 2001.
9. Абдурашидхонов М. Танланган асарлар. –Т.: «Маънавият», 2003.



10. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. – Т.: “Университет”, 2006.
11. Беҳбудий М. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2 нашри. –Т.: Маънавият. 1999.
12. Гаспринский (Гаспрали). Ҳаёт ва мамот қиссаси. Танланган асарлар – Т., “Маънавият”, 2006.
13. Ризаев Ш. Жадид драмаси. –Т.: «Шарқ», 1997.
14. Фитрат А. Танланган асарлар 1-жилд. Шеърлар, насрий асарлар, драмалар. – Т.: Маънавият. 2000.
15. Фитрат А. Танланган асарлар. 2-жилд. Илмий асарлар. -Т.: Маънавият. 2000.